

YOSHLARDA EKOLOGIK ONG VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Avg'onova Gulira'no Tolibjon qizi
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
avganovagulirano@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, shuningdek, bu madaniyatni butun hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz va butun umrimiz mobaynida unga amal qilishimiz lozimligi yoritilgan. Shuningek, mazkur maqolada, buyuk bobokalonlarimizning ekologik madaniyat va bilimlarga oid qarashlari, ularning atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi g'oyalari keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologiya, atrof-muhit, ekologik ong, ekologik madaniyat, e'tiqod, diniy tasavvurlar, ekologik qadriyat, inson

Mamlakatimizda shaxs tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, komil inson konsepsiyasini yangicha yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan bugungi kunda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, barkamol shaxs tarbiyasida ekologik ong, ekologik madaniyat kabi umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lishi mavjud ta'lim-tarbiya tizimining ratsional imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Vaholanki, "...eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”. Bundan kelib chiqib, zamonaviy global muammolar inson omiliga destruktiv ta'sir etayotgan bir vaqtda, jamiyat hayotining barcha sohalarida ekologik ong tushunchasining konseptual asoslarini tadbiq etish, ekologik ong faoliyatdagi konstruktiv ahamiyatini ochib berish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish hamda falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etish zarurati vujudga kelmoqda.

Ekologik madaniyat bu-atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishimiz, uni asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazishimizdir. Bugungi kunda atrof-muhitni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, yoshlarda ekologik ong va tafakkurni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tabiat va atrof-muhitni asrash oilada, maktabda, mahallada, har bir jamoada shakllanib boradigan qadriyatlardan biridir. Ekologik tarbiya yordamida sog'lom turmush tarzini yaratish, rivojlanish va odamlar tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiziqishlariga va tabiiy o'zgartirish, xalq munosabati ifodalangan madaniy, shuningdek, ijtimoiy qadriyatlarni inobatga olish zarur. Bu borada mamlakatimizda tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy me'yori va miqdorini belgilangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu talablarga rioya etilmagan holatlarda huquqiy javobgarlik choralari qo'llash masalalari bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan. Xususan, Asosiy qonunimizning 62-moddasida «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar», 68-moddasida esa «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir» degan konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning belgilangan. Bularning barchasi mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tabiiy resurslarga nisbatan ekologik madaniyatga ega bo'lishlarini talab qiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish bugungi kunning eng muhim ekologik muammosi hisoblanadi va bu muammo hamma aholi hamda ular yashayotgan davlatlar manfaatini o'z ichiga qamrab oladi. Bu muammo hayotning barcha muammolaridan farq qilgan holda, yer yuzidagi jonzorlar, shu jumladan, eng avvalo insonlar salomatligini saqlashni ko'zda tutadi.

Ekologik madaniyatga ega shaxs atrof- muhitga munosabatda mas'uliyatni his etadi. Bu borada ega bo'lgan bilim, ko'nikmalarini ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayangan holda hayotga tatbiq etadi.

Bizga ma'lumki, tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bog'liqligi qadimdan ma'lum. Antik davrda yashagan faylasuflarning asarlarida hayvonlarning turli instinktlari, baliqlar va qushlarning migratsiyalari, o'simliklarning tashqi qiyofasi, tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. VII-VIII asrlardagi ekologik ma'umotlar tirik organizmlarni ayrim guruhlarini o'rganishga qaratilgandir. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarini rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, shuningdek, tabiatni e'zozlash haqidagi qimmatli fikrlarni aytganlar.

Ekologik madaniyat bu tabiatga imkoni boricha zarar yetkazmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunish hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarda tabiatdan, uning boyliklariga zarar yetkazmagan holda foydalanish kerakligini o'rgatish ekologik ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadlaridan biridir. Bunday maqsadlarga erishishda Oliy o'quv yurtlarida turli kasb egalari uchun alohida dasturlar, metodik qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ularda har bir mutaxxassislik bo'yicha tabiatga salbiy ta'siri, atrof-muhit muhofazasi muammolari o'z aksini topgan bo'lishi zarur.

Yoshlarda ekologik ta'lim - tarbiya masalalariga chuqur yondashishda maxsus ekologik ta'lim tarbiya dasturi hamda metodik qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi. Ekologik madaniyat ham umumbashariy madaniyatning uzviy bir qismi. Ekologik madaniyat ongli ravishda atrofimizni o'rab turgan barcha muhitga nisbatan bizning ijobiy munosabatimiz, ya'ni tabiat va atrof-muhitni asrashni oilada, mahallada,

maktabda va jamoalarda shakllanib boradigan qadriyatlarimizdir. Ekologik madaniyat – bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg‘u, va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Berry, J. W. A Cultural Ecology of Social Behavior. "Advances in Experimental Social Psychology." Ed. Berkowitz, Leonard. Vol. 12: Academic Press, 1979. 177–206. Print.
2. Head, Lesley, and Jennifer Atchison. "Cultural Ecology: Emerging Human-Plant Geographies." Progress in Human Geography (2008). Print.
3. Sutton, Mark Q, and E.N. Anderson. "Introduction to Cultural Ecology." Second Edition ed. Lanham, Maryland: Altamira Press, 2013. Print.
4. Qosimova S.T. Q61 Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. — Q. II / S.T.Qosimova, Sh.Shojalilov, O.A.Bader; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. — T.: Istiqlol, 2005.
5. Xoshimov M. O‘zbekistonning ekologik turizmi. - Samarqand, 2012.